

Rossiya Fanlar akademiyasi Ural bo'limi delegatsiyasi institutga tashrif buyurdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi institutiga Rossiya Fanlar akademiyasi Ural bo'limi delegatsiyasi tashrif buyurdi.





Tashrif doirasida mehmonlar institutning asosiy faoliyat yoʻnalishlari, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hamda mavjud laboratoriya bazasi bilan tanishtirildi. Xususan, immunologiya, tibbiy genetika, molekulyar biologiya va hujayra texnologiyalari yoʻnalishlarida amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar yuzasidan maʼlumot berildi.

Shuningdek, delegatsiya aʼzolari institut laboratoriyalarida boʻlib, ilmiy xodimlar bilan uchrashdilar, tadqiqot jarayonlari va mavjud ilmiy salohiyat bilan yaqindan tanishdilar.

Uchrashuvlar davomida ilmiy hamkorlikni kengaytirish, tajriba almashish va istiqboldagi qoʻshma loyihalar yuzasidan fikr almashildi.